

ALEKSANDR FAYNBERG: MUHABBAT – YURAK IZTIROBLARINING POETIK IFODASI

Shukurova Sevinch Bahodir qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Aleksandr Faynbergning “Muhabbat” she’ri lirik badiiy uslubda tahlil qilinadi. She’r inson qalbining eng nozik kechinmalarini – muhabbat, hijron va umidsizlikni aks ettiradi. Shoir tabiat tasvirlari va ramziy obrazlar orqali insoniy tuyg‘ularning murakkabligini poetik jihatdan ochib beradi.

Kalit so’zlar: Aleksandr Faynberg, she’riyat, lirik-falsafiy ruhiyat, ramziy obraz, badiiy tasvirlar, poetik obrazlar.

Asosiy qism

She’rning mavzusi va asosiy g‘oyasi

Aleksandr Faynberg ijodi o‘zining lirik-falsafiy ruhiyati bilan ajralib turadi. Uning “Muhabbat” she’rida insonning sevgi bilan vidolashuvi, uning qalbida qoldirgan izlari va hijronning chuqur iztiroblari tasvirlanadi. Shoir muhabbatni yorqin olov, daryo oqimi va osmon yulduzları kabi poetik obrazlar orqali tasvirlaydi.

Poetik vositalar va badiiy tasvirlar

She’rning boshlanishida muhabbat bilan xayrashuv ramziy obraz orqali ifodalanadi:

“Muhabbat, xayr endi, men suzib ketdim,

Suv bo‘yida tutab qoldi gulxanim.”

Bu satrlarda inson yuragidagi muhabbat gulkanga o‘xshatilgan. Shoirning “suzib ketishi” esa muhabbatning endi ortga qaytmasligidan dalolat beradi. Gulxanning tutab qolishi esa sevgining izlari hali ham yurak tubida mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

She’rning keyingi misralarida hayotning adolatsizligi va insonning taqdir oqimiga bo‘ysunishi aks etadi:

"Hijron qayig‘imning arqonini uzar.

Ishonch – irodani ajr etar dunyo –

Oqimni yengganlar tepaga suzar,

Oqqanlarni pastga oqizar dunyo."

Bu yerda “oqim” – hayot oqimi, inson taqdiri ramzi sifatida keladi. Kuchli bo‘lganlar hayotda yuqoriga ko‘tarilsa, ojiz va mag‘lub bo‘lganlar esa oqim bilan pastga oqib ketadi. Shoir bu satrlar orqali hayotning shafqatsizligiga ishora qiladi.

Muhabbatning butkul yo‘qolgani va yurakdagagi iztirob she’rning keyingi qismida yanada chuqurlashadi:

"Men oqdim. Daryoning oqimi bebok,

Endi dudo‘g‘imga yulduzlar qo‘nmas.

Ayriliq to‘foni – achchiq, alamnok –

Olamni buzadi, g‘azabi so‘nmas."

Bu misralarda ajralishning achchiq tuyg‘usi yaqqol ko‘rinadi. “Daryoning oqimi bebok” degan ifoda insonning taqdir oldida ojizligini anglatadi. Yulduzlarning dudo‘qqa qo‘nmasligi esa muhabbatning endi hech qachon avvalgidek porlamasligini bildiradi.

Shoir she’r yakunida dramatik va ta’sirli xulosa qiladi:

"Qirg‘oqda gulxanning tutuni o‘chdi.

O‘ydagi jamilingni to‘sdi bulutlar,

– Kechir! – yuragimdan bir nido uchdi."

Bu satrlar muhabbatning tugashi bilan bog‘liq chuqur ichki iztirobni aks ettiradi. Gulxanning o‘chishi muhabbatning so‘nganini anglatadi, bulutlar esa qalbdagi g‘am va hasrat ramzidir. She’rning so‘nggi misrasi – "Kechir!" – sevgi yo‘qolgandan keyingi kechikkan nadomat va umidsizlikni aks ettiradi.

MUHABBAT	LOVE
Muhabbat, xayr endi, men suzib ketdim,	Love, farewell now, I have drifted away,
Suv bo'yida tutab qoldi gulxanim.	On the shore, my bonfire smolders and stays.
Labingdan men emas, yulduzlar o'pdi,	Not from my lips, but the stars have risen,
Yoningda qolmoqqa yo'qdir imkonim.	No chance remains to stay beside you, hidden.
Hijron qayig'imning arqonin uzar.	The rope of my sorrow's boat is torn,
Ishonch - irodani ajr etar dunyo –	Trust—fate separates from the sworn.
Oqimni yengganlar tepaga suzar,	Those who conquer the stream rise high,
Oqqanlarni pastga oqizar dunyo.	While the drowned are left to sigh.
Men oqdim. Daryoning oqimi bebok,	I have sunk. The river's current is wild,
Endi dudog'ingga yulduzlar qo'nmas.	No stars will rest on my lips, exiled.
Ayriliq to'foni - achchiq, alamnok	The storm of separation—bitter, severe—
Olamni buzadi, g'azabi so'nmas.	
Qayiqda sirpanchiq taxtalar yig'lar,	

Qirg'oqda gulxanning tutuni o'chdi.	Shatters the world, its wrath sincere.
Oyday jamolingni to'sdi bulutlar, -	On the raft, damp planks gather tight,
Kechir! - yuragimdan bir nido uchdi.	On the shore, my bonfire's smoke took flight.
	Clouds veiled the beauty I once adored, "Forgive me!"—from my heart, a cry soared.

Xulosa

Aleksandr Faynbergning “Muhabbat” she’ri inson qalbining eng nozik va og‘riqli jihatlariga urg‘u beruvchi lirik asardir. Unda muhabbatning tugashi, hijron va umidsizlik obrazlari poetik mahorat bilan tasvirlangan. She’r badiiy ifoda vositalari orqali o‘quvchini chuqur o‘yga toldirib, yurakdagi sevgi va hijron kechinmalarini jonlantiradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Aleksander. F. (2021). “Qoralamaga qasida”. Toshkent: “Adabiyot”
2. Shukurov, O. (2018). O‘zbek she’riyatining lirik poetikasi. Toshkent: Yangi asr avlodи.
3. Qosimov, N. (2019). Lirik she’riyat tahlili. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Meliqo'ziyeva Zuhraxon Abdurashid qizi. O’ZBEK VA RUS YOZUVCHISI ALEKSANDR ARKADIVICH FAYNBERG HAYOTI, IJODINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. 770-772. Международныи научныи журнал«Научныи импульс» №9 (100), часть2 апреля 2023(1)
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>